

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

PRIMOV SARDOR ABDUMUMIN O‘G‘LI

**KAM CHO‘ZILUVCHAN IKKI QAVATLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARINI
ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Primov Sardor Abdumumin o‘g‘li

Кам cho‘ziluvchan ikki qavatli trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarish
texnologiyasini takomillashtirish.....3

Примов Сардор Абдумумин ўғли

Совершенствование технологии выработки малорастяжимых трикотажных
полотен двойного переплетения.....25

Primov Sardor Abdumumin o‘g‘li

Improving the technology for producing low-stretch double-knit fabrics.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

PRIMOV SARDOR ABDUMUMIN O‘G‘LI

**KAM CHO‘ZILUVCHAN IKKI QAVATLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARINI
ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.I.PhD/T5402 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz, (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttyysi.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Mirusmanov Baxtiyar
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich
texnika fanlari doktori, professor

Xoliqov Qurbonali Madaminovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/2025.27.12.T.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-y "10" mart soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjaxon-5, 1-bino 222-xona. tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz).

Dissertatsiyasi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 275-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzili: 100100, Toshkent sh., Shohjaxon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "23" fevral kuni tarqatildi.
(2026 yil "23" fevraldagi 275- raqamli reyestr bayonnomasi).


X.H. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor
A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kотиби, t.f.d., professor
SH.SH. Hakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon bozorlarida sifatli va hamyonbop trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 25% ga ortib borishi kutilmoqda. Bu esa raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda, korxonalarda ishlab chiqarilayotgan trikotaj to‘qimalari ishlab chiqarish hajmi va ko‘lami bo‘yicha AQSH, Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Turkiya va Indoneziya kabi davlatlar yetakchilik qilmoqda. Dunyo miqyosida to‘qimachilik bozori hajmi 2024-yilda 1,840 trillion dollarni tashkil etdi. 2025-yilda bu ko‘rsatkich 1,976 trillion dollarga, shu jumladan, to‘qimachilik sanoatida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, trikotaj mahsulotlarining yangi assortiment turlarini, xususan trikotaj mahsulotlarini olishning yangi texnologik usullarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish, hamda tabiiy va sun‘iy xomashyodan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda tabiiy xomashyolardan oqilona foydalanish, tabiiy va kimyoviy iplar chegarasini kengayirish, trikotaj to‘qimachilikning yangi assortimentlarini ishlab chiqishda yangi texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, kam cho‘ziluvchan ikki qavatli trikotaj to‘qimachilikni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini rivojlantirish, yangi tuzilishli trikotaj to‘qimachilikni ishlab chiqish, trikotaj tarkibidagi iplari miqdorini uning texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlariga ta‘sir etish bog‘liqliklari ishlab chiqish, xomashyo sarfini kamaytirishni texnologik yechimlarini tavsiya etish va nazariy jihatdan asoslash, xomashyo sarfi kam, yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan ikki qavatli kam cho‘ziluvchan trikotaj to‘qimachilikning yangi turlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. 2023-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “O‘zbekiston-2030” strategiyasida, jumladan, “Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, to‘qimachilik sektorida mahalliy xomashyo asosida aholining turli iste‘molchi qatlamlariga yuqori samara beruvchi kam cho‘ziluvchan ikki qavatli trikotaj to‘qimachilikni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”¹, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 -yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi, 2024-yil 1-maydagi PF-71-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni

2025-yil 16-yanvardagi PF- 6-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”² Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunda trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, ikki qavatli trikotaj to‘qimalarini tuzilishi, texnologik va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha xorijiy olimlardan A.S. Dalidovich, I.I. Shalov, L.A. Kudryavin, V.M. Lazarenko, V.A. Zinoveva, Ye.P. Pospelov, G.Sh. Ruxadze, L.V. Shengelya, Yu.A. Maksimova, N.A. Grechuxina, A.Y. Statsenko, Liu S., Zhou J., Peng Jiajia, Jiang Gaoming, Xia Fenglin va boshqalarning ilmiy izlanish ishlari tahlil qilingan.

Trikotaj to‘qimalari va mahsulot assortiment turlarini kengaytirish, xomashyo sarfini kamaytirish hamda trikotaj to‘qimalarining texnologik parametrlarini va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha, respublikamiz olimlaridan X.A. Alimova, M.M. Muqimov, N.R. Xanxadjayeva, B. Mirusmanov, Q.M. Xoliqov, X.A. Xazratqulov, M.M. Musayeva, G.X. Gulyayeva, T.K. Allamuratova, N.M. Musayevlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida trikotaj to‘qimalarining mahalliy xomashyolardan olish, yangi turdagi to‘qima va mashinalardan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish va amaliyotda qo‘llash masalalarni bo‘yicha samarali natijalarga erishilgan. Biroq yangi tuzilishli interlok trikotaj to‘qimalarini olish hisobiga cho‘ziluvchanlik xususiyatlarni kamaytirish va assortiment turlarini kengaytirish bugungi kundagi dolzarb muammolardan bo‘lib kelmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqotlar ishlar rejasining I-20114-4 “Trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarishda resurstejamkor texnologiyani yaratish” mavzusidagi innovatsion davlat granti loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: kam cho‘ziluvchan ikki qavatli trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

ikki qavatli kam cho‘ziluvchan interlok trikotaj to‘qimasi asosida yangi tuzilishli trikotaj to‘qimalari olishning texnologiyasini takomillashtirish;

ikki qavatli trikotaj to‘qimalarini texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlariga xomashyo turi va chiziqiy zichliklarini ta‘sirini ilmiy asoslash;

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi PF- 6-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

trikotaj to'quv mashinasida matoni tortish va o'rash valini matoni eni bo'yicha bir me'yorda tortilishiga ta'sir etuvchi kuchlarni tahlil qilish va nazariy asoslash;

ikki qavatli kam cho'ziluvchan trikotaj to'qimalarini sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi texnologik omillarini tahlil qilish va asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinasi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida ikki qavatli kam cho'ziluvchan trikotaj to'qima tuzilishlari va yigirilgan paxta ipi olingan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida qo'yilgan talab va vazifalarni yechishda, nazariy hamda eksperimental usullardan, tadqiqot jarayonida trikotaj texnologiyasi, to'qimachilik materialshunosligi, nazariy mexanika, amaliy matematika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kam cho'ziluvchan ikki qavatli interlok trikotaj to'qimasi tarkibiga qo'shimcha halqa qatorlarini yassi ignadonli trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan foydalanib qo'shish orqali yangi tuzilishli trikotaj to'qima turlarini ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashtirilgan;

kam cho'ziluvchan ikki qavatli trikotaj to'qimalarini texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlariga xomashyo turi va chiziqiy zichliklarini o'zgartirish asosida bog'liqlik qonuniyati aniqlangan;

trikotaj to'quv mashinalarida tortish va o'rash valining rezina qoplamalarini qayta o'rash va qavvari q burchak qiymatlarini o'zgartirish hisobiga matoni ignadon eni bo'yicha bir me'yorda tortilishini ta'minlovchi vallar takomillashtirilgan;

kam cho'ziluvchan ikki qavatli trikotaj to'qimalarini sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarining qiymatlarini trikotaj tarkibidagi xomashyolarni turiga va miqdoriga bog'liqligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida kam cho'ziluvchan ikki qavatli trikotaj to'qimalarining yangi tuzilishlari ishlab chiqilgan va ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashtirilgan;

turli rapportdagi interlok trikotaj to'qimalarining texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlariga xomashyo turining ta'sir etish qonunuyatlari aniqlangan;

yassi fang trikotaj mashinalarining tortish tizimidagi vallar konstruksiyasi takomillashtirilgan. Trikotaj matosini to'qish va tortish tizimgacha bo'lgan shaklini saqlab qolish imkoniyatlari nazariy tomondan tadqiq etilgan;

yangi yaratilgan arqoqli trikotaj to'qimalarning rapportlari hamda tuzilishini uning texnologik ko'rsatkichlariga, fizik-mexanik xususiyatlariga bog'liqliklari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining dissertatsiya yakunida shakllantirilgan ilmiy holatlar, prinsiplar, xulosalar va tavsiyalar, nazariy va eksperimental tadqiqot natijalarini bir-biriga mos kelishi, aprobatsiya va qo'llash natijalarining ijobiyligiga, solishtirish, baholash kriteriyalari, ularning adekvatligi, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiyligi va ularning ko'rib chiqilayotgan fan sohasidagi ma'lumotlari bilan qiyosiy tahlili bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati cho‘ziluvchanligi kam bo‘lgan yangi tuzilish, rapport va ishlab chiqarish usuliga ega bo‘lgan ikki qavatli trikotaj to‘qimalarini olish, yassi ignadonli mashinalarning tortish mexanizmining nazariy tadqiqoti va ko‘rsatkichlarini asoslash bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati kam cho‘ziluvchan, yuqori sifatli yangi tuzilish va rapportga ega bo‘lgan ikki qavatli trikotaj to‘qimalarini olish usullarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ikki qavatli kam cho‘ziluvchan trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan natijalar asosida:

kam cho‘ziluvchan ikki qavatli trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarish texnologiyasi “Riviera textile” MCHJ va “MERGANCHA TEXTILE-SERVICE” MCHJ qo‘shma korxonasi joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasining 2025-yil 21-iyul № 02/25-1760 son ma‘lumotnomalari). Natijada ikki qavatli kam cho‘ziluvchan trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarishga erishilgan;

ikki qavatli trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarishda, yassi ignadonli trikotaj to‘quv mashinalarida joylashgan tortish va o‘rash mexanizmini rezina qoplamasini 35^o burchak ostida qayta o‘rash “MERGANCHA TEXTILE-SERVICE” MCHJ qo‘shma korxonasi joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasining 2025-yil 11-dekabr № 02/06-2862 son ma‘lumotnomasi). Natijasida trikotaj matolarini ikki chetki qism nuqsonlarini 12% ga kamaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 8 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan, 5 ta xalqaro, 1 ta respublika ilmiy anjumanlarida va 2 ta ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining chop etilganligi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 8 ta ilmiy-texnik jurnallarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy jurnallarida va 1 ta ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zamonaviyligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari tavsiflangan, uning obekti, predmeti va usullari aniqlangan, O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalari rivojining ustvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya bo‘yicha halqaro ilmiy tadqiqotlar sharxi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiti ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ikki qavatli trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha adabiyotlar sharxi**” deb nomlangan birinchi bobida adabiyot manbaalarining tahlili yoritilgan bo‘lib, unda dunyo bo‘yicha to‘qimachilik sanoatida

mahalliy va tabiiy xomashyolardan foydalangan holda sifatli, yangi tuzilishli, xususiyatlari yuqori to‘qima assortiment turlari hamda to‘quv mashinalarining texnologik imkoniyatlari to‘qish jarayonining sifatli bo‘lishi, xomashyodan yetarlicha foydalanish, mehnat unumdorligini ko‘paytirish uchun sharoit yaratish, sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan iplardan trikotaj to‘qimalarini olish, trikotaj sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan kabi masalalarga e‘tibor qaratilgan. Olib borilgan adabiyotlar tahlili natijalari asosida trikotaj to‘quv mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, ikki qavatli arqoqli, kam cho‘ziluvchan trikotaj to‘qimalarining yangi tuzilishlarini olishning texnologik usullari ishlab chiqish, uni ilmiy asoslash masalalari dissertatsiya ishining vazifasi etib belgilangan. Bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari; chop etilgan ilmiy maqolalar, patentlar va internet tarmoqlaridan olingan ma‘lumotlar tahlilidan ma‘lum bo‘ldiki, ikki qavatli trikotaj to‘qimalarining tarkibiga arqoq iplarini kiritish orqali cho‘ziluvchanligi kam bo‘lgan, yangi turdagi to‘qima tuzilishlarini yaratish, yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan poliakrilonitril (PAN) va paxta iplaridan ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalarining yangi turlarini ishlab chiqarish texnologiyasi, parametrlari va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiqoti va tahliliga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar to‘liq va yetarli darajada olib borilmaganligi dissertatsiya ishini maqsad va vazifalarini aniqlab berdi.

Dissertatsiyaning “**Ikki qavatli kam cho‘ziluvchan trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida Paxta va poliakrilonitril (PAN) iplarining fizik-mexanik xossalari o‘rganilgan va Xitoyning “SINOTRICOT HF-352” firmasida ishlab chiqarilgan yassi ikki ignadonli trikotaj to‘quv mashinasini texnologik imkoniyatlarini tahlil qilingan.

To‘qimalarni to‘qishdan avval, chiziqli zichligi 20 teks paxta va Poliakrilonitril (PAN) iplarining xususiyatlari tadqiq qilingan va olingan natijala quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Paxta va Poliakrilonitril (PAN) iplarining fizik-mexanik xossalari tadqiqi


Ko‘rsatkichlar	Poliakrilonitril (PAN)	Paxta ipi
Buramlar soni: (<i>buram/metr</i>)	710	650
Buramlar soni bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti: (%)	2,8	3,0
Buram berilgan ipning chiziqliy zichligi, (<i>teks</i>)	20	20
Ipning chiziqliy zichligi bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti, (%)	11,2	14,17
Ipning uzulish kuchi: (<i>sN</i>)	448,6	254,4
Ipning nisbiy uzulish kuchi: (<i>sN/teks</i>)	22,43	12,72

Yuqorida keltirilgan paxta va Poliakrilonitril (PAN) iplarining chiziqli zichliklarini son ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish va to‘qimada ularni arqoq ipi sifatida


joylashtirganda, press halqa qatorlari hamda hosilali glad halqa qatorlarini to‘qilganda trikotajning texnologik ko‘rsatkichlariga, fizik-mexanik xususiyatlari va to‘qimalarning cho‘ziluvchanligiga xomashyolarning ta‘sirini tadqiq qilindi.

Hozirgi davrda trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarishda mahsulot turini kengaytirish, trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish va mahalliy xomashyolarini samarali ishlatish muhim vazifalardan biri sanaladi. Ikki qavatli trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarishdan oldin ishlatiladigan xomashyo materiallarining fizik-mexanik xususiyatlarini chuqur o‘rganish esa to‘qima sifatini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.


Tahlil qilish davomida to‘qimalarning rapportlarini o‘zgartirish va trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida “RIVIERA TEXTILE” MCHJ va “Mergancha textile-service” korxonasida o‘rnatilgan, SINOTRICOT HF-352 rusumli yassi ikki ignadonli trikotaj to‘quv mashinasida, ikki qavatli arqoqli, pressli hosilali trikotaj to‘qima namunalari paxta ipidan 11 xil variantlari mashinaning konstruktiv tuzilishiga xech qanday o‘zgartirishlar kiritmasdan, faqatgina mashinaning texnologik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish hisobiga kam cho‘ziluvchan arqoqli, pressli va hosilali trikotaj to‘qimalari to‘qib olindi. Olingan arqoqli trikotaj to‘qimalarining 1, 2 va 3 variantlarini tuzilishlari va grafikli yozuvlari keltirilgan (1, 2, 3-rasmlar).



1-rasm. Ikki qavatli interlok trikotaj to‘qimasining (a) strukturasi, (b) grafikli yozuvi




2-rasm. Ikki qavatli arqoqli interlok 2+2 rapportli trikotaj to‘qimaning (a) strukturasi, (b) grafikli yozuvi



3-rasm. Ikki qavatli arqoqli interlok 3+3 rapportli trikotaj to‘qimaning (a) strukturasi, (b) grafikli yozuvi

Dissertatsiyaning “Yassi ikki ignadonli trikotaj to‘quv mashinalarining tortish tizimini nazariy tahlili” deb nomlangan uchinchi bobida Yassi ignadonli trikotaj to‘quv mashinalari mahsulotlarni qism holatda alohida to‘qiydi va bu jarayon ishlab chiqarishda chiqindilar miqdorini eng kam chiqaradigan mashinalardan biri hisoblanadi. Mashinaning imkoniyatlari yuqori bo‘lishi bilan bir qatorda uning kamchiliklari ham mavjud. Mashinada uchraydigan muammolardan biri bu to‘qish tizimidan-uning tortish tizimigacha bo‘lgan masofada. Ushbu masofada to‘qimalarni eni bo‘yicha qisqarishi kuzatiladi va qisqargan to‘qima tortish vallari orqali tortilishi natijasida to‘qimaning ikki chet ignalarga ortiqcha kuch ta’sir qiladi (4-rasm).




4-rasm. “HF-352” rusumli yassi ikki ignadonli trikotaj to‘quv mashinasini (a) mavjud tortish va o‘rash vallaridan (b) trikotaj to‘qimasini chetki nuqsonli qismini ko‘rinishi


To‘qima chetidagi halqalarning halqa ipi uzunliklari ortib, to‘qima markazidagi halqalarni halqa ipi uzunliklariga nisbatan uzunroq bo‘lishi ma’lum. Natijada, mashinaning tortish vallaridan olingan trikotaj to‘qimasining o‘rtasidagi halqalar bilan chetidagi halqalarning balandliklari har xil bo‘lganligini ko‘rish mumkin. To‘qimani bitta qatoridagi halqa balandliklarini bir teks to‘qilmasligi sifatsiz trikotaj to‘qima to‘qilishiga sabab bo‘ladi.

Ushbu muammoni texnologik nuqtai nazardan hal etish maqsadida Ikki ignadonli yassi fang mashinalarida tortish tizimini takomillashtirish orqali to‘qimalardan sifatli va xomashyo sarfi kam bo‘lgan trikotaj mahsulotlari olish uchun, tortuvchi vallarning ustiga takomillashtirilgan rezina qoplamasi qo‘yish orqali ushbu muammoni texnologik nuqtai nazardan hal qilinishi tahlil etildi. Ya’ni rezina qoplamaning ma’lum bir burchak ostida qaytadan o‘rash orqali to‘qima halqalarni tortilish kuchini tenglashtirishning nazariyasi ishlab chiqildi (5-rasm).

Rezina qoplamali vallar ta’sirida matoni bir tekisda uzatish masalasi ko‘rilgan rezina qoplamalari tekis yoyib uzatish maqsadida qoplama o‘yiqchalar α (15° , 25° va 35°) burchak ostida qilib ishlov berilgan. Asosiy maqsad kelayotgan matoni cho‘zilishi natijasida matoning dastlabki shakli o‘zgaradi buning natijasida bir tekisda o‘rash imkoniyati bo‘lmaydi.



5-rasm. “HF-352” rusumli yassi ikki ignadonli trikotaj to‘quv mashinasining takomillashtirilgan tortish va o‘rash vallari



6-rasm. Takomillashgan tortish va o‘rash vallaridagi rezina qoplamasi ta’sirida trikotaj matosini geometrik xolatini saqlashga ta’sir qiluvchi kuchlar sxemasi

Rezina qoplama sirtidagi matoning α yo‘nalishidagi harakati

$$\begin{cases} \dot{X}(s) = \dot{S} \cos \alpha \\ \dot{Y}(s) = \dot{S} \sin \alpha \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \vartheta_x = \dot{S} \cos \alpha \\ \vartheta_y = \dot{S} \sin \alpha \end{cases}$$

bu yerda S-joylashgan rezinaning uzunligi α –og‘ish burchagi.

Rezina qoplamasi va burchak ostida yo‘naltiruvchi vallar orasidan o‘tuvchi matoning harakat differensial tenglamasini aniqlangan.

$$m \frac{d\vartheta}{dx} = \frac{dT}{dx} - T(x) - \mu P(x)$$


Rezina qoplamasi vallardan matoning harakati natijasidagi taranglik va bosim kuchlarini aniqlaymiz:

$$\begin{cases} P_x = \frac{1}{\mu} \cdot \varphi \cdot T_0 \cdot e^{\varphi \cdot \mu} \cdot \cos \alpha \\ P_y = \frac{1}{\mu} \cdot \varphi \cdot T_0 \cdot e^{\varphi \cdot \mu} \cdot \sin \alpha \end{cases}$$


$$\begin{cases} T_x = m \cdot S \cdot \cos \alpha + \frac{T_0 \cdot \cos \alpha}{\varphi} (e^{\mu \cdot \varphi} - 1) \\ T_y = m \cdot S \cdot \sin \alpha + \frac{T_0 \cdot \sin \alpha}{\varphi} (e^{\mu \cdot \varphi} - 1) \end{cases}$$

Bosim va taranglik ifodalardan foydalanib o‘yiqcha uzunligi bo‘yicha bosim va taranglik kuchlarini S o‘zgarishini Maple dasturi orqali tahlili keltirilgan. Hisoblashlarda quyidagi parametrlarning qiymatlari olingan:


$\mu = 0,3, \varphi = 65^0, T_0 = 70H, S = 12 sm, m = \dots Tp, \rho = 250, A=0,079 m^2, \alpha = 15^0 \div 35^0$




7-rasm. Takomillashgan rezina qoplamali valldan o‘tishdagi matoning OX o‘qi bo‘yicha bosim kuchini kuchini ta’sir etish grafifi




8-rasm. Takomillashgan rezina qoplamali valldan o‘tishdagi matoning OY o‘qi bo‘yicha bosim kuchini kuchini ta’sir etish grafifi



9-rasm. Takomillashgan rezina qoplamali valldan o'tishdagi matoning OX o'qi bo'yicha taranglik kuchini ta'sir etish grafigi



10-rasm. Takomillashgan rezina qoplamali valldan o'tishdagi matoning OY o'qi bo'yicha taranglik kuchini ta'sir etish grafigi




11-rasm. Taranglik kuchini tashkil etuvchilari bo'yicha o'zgarishi

Ignadondagi ignalardan mato uzatilishida bir xilda kuch ta'sir qilishini amalga oshirishda matoning vallar orasidan o'tishda o'yiqchalarni og'ish burchagi ta'sirida taranglik kuchini R_a reaksiya kuchi bilan orasidagi munosabat

$$R_A = Q = 2 \cdot T \cdot \sin \alpha$$

$$R_A = Q = 2 \cdot T \cdot \sin \alpha = 2 \cdot \sqrt{\left[m \cdot S \cdot \cos \alpha + \frac{T_0 \cdot \cos \alpha \cdot (e^{\mu \cdot \varphi} - 1)}{\varphi} \right]^2 + \left[m \cdot S \cdot \sin \alpha + \frac{T_0 \cdot \sin \alpha \cdot (e^{\mu \cdot \varphi} - 1)}{\varphi} \right]^2} \cdot \sin \alpha$$



12-rasm. Takomillashgan rezina qoplamali valldagi matoni shaklini saqlab qolishdagi reaksiya kuchini o'yiqcha og'ish burchagini turli xil


$\alpha_1 = 15^\circ$ $\alpha_2 = 25^\circ$ $\alpha_3 = 35^\circ$ qiymatlarida qamrash burchagiga bog'liqlik grafigi

Trikotaj matosini shaklini saqlash uchun quyidagi tenglik o'rinli bo'lishi zarur va yetarlidir. Q-Taranglik kuchlariga bog'liqlik ifodasi

$$R_A = Q$$

Ignadonlarga tushadigan reaksiya kuchi o'yiqchanning og'ish burchagini $\alpha=35^\circ$ gradusda katta o'zgarish bo'lganligi grafikda keltirilgan. Demak, bu holatda mato o'z shaklini o'zgartirmasligi aniqlandi. Hisoblashlarda quyidagi parametrlarning qiymatlari olingan

$$\mu = 0,3, \varphi = 65^\circ, T_0 = 70 \text{ sN}, S = 12 \text{ sm}, m = 0,25 \text{ kg}$$



13-rasm. Takomillashtirilgan rezina qoplamali vallarning (a) umumiy ko'rinishi va (b) to'qimaning ko'rinishi

Yuqorida keltirilgan nazariy va eksperimental tahlillar natijalarini umumlashtirib quydagi xulosaga kelish mumkin: yassi ignadonli mashinalarda tortish vallari to'qish tizimida va vallargacha bo'lgan masofada qisqarishi sababli, tortish jarayonida to'qimada halqa balandliklari o'zgaradi. Natijada, birinchi va oxirgi ignalarga tortish vallarning ortiqcha ta'sir kuchi kamaytirilib, mashinaning tortish vallari kuchini bir xil ta'sir qilish samarasini oshiradi. Tortish vallarning rezina qoplamalarini 35° burchak ostida vallarning markazidan ikki chetki tomoniga qarab qayta o'rash orqali, to'qimadagi halqa balandliklari va ignalardagi kuch ta'sirining tenglashishiga olib kelishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Ikki qavatli kam cho'ziluvchan trikotaj to'qimalarini texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiqoti”** deb nomlangan to'rtinchi bobida ikki qavatli interlok trikotaj to'qima matosi namunalarining texnologik ko'rsatkichlari prof. A.S.Dalidovich tomonidan taklif qilingan usulda hisoblangan va olingan natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Olingan matolar ichida asos to'qimasi sifatida yigirilgan paxta ipidan to'qilgan interlok trikotaj to'qimasini birinchi variant deb qabul qilingan. I-variant asos to'qima hisoblanib, II, III va IV-variantlar 2+2 rapportli arqoqli interlok, V, VI va VII-variantlar 3+3 rapportli arqoqli interlok keltirilgan. VIII-variant hosilali interlok, IX-variant pressli interlok, X-variant hosilali press interlok hamda XI-variant esa interlok asosli arqoqli press trikotaj to'qimalari 100% paxta ipidan tashkil topgan.

Interlok asosida olingan arqoqli trikotaj to'qimalar tarkibidagi arqoq iplarining chiziqli zichligi oshib boradi ya'ni 2+2 rapportdagi to'qimaning arqoq iplari 20 teks x 1, 20 teks x 2 va 20 teks x 3 dan iborat. Interlok asosida arqoqli 3+3 rapportli

to‘qimalarda ham huddi 2+2 rapportli to‘qima kabi arqoq iplari 20 teks x 1, 20 teks x 2 va 20 teks x 3 dan tashkil topgan. Qolgan barcha to‘qimalar tarkibi 20 teks x 3 paxta ipidan tashkil topgan.

2-jadval


Ikki qavatli trikotaj to‘qimasining texnologik ko‘rsatkichlari (paxta)

Variantlar	Arqoq ipining matodagi miqdori, %	Halqa qadami A, mm	Halqa qatori Balandligi V, mm	Gorizontaal bo‘yicha zichlik P _g , halqa	Vertikal bo‘yicha zichlik P _v , halqa	Asos halqa ipi uzunligi L, mm	Press halqa ipi uzunligi L, mm	Hosila halqa ipi uzunligi L, mm	Trikotaj toqimasi yuza zichligi M _s , gr/m ²	Trikotaj toqimasi qalinligi T, mm	Hajmiy zichligi δ, gr/sm ³
I	-	1,56	0,66	32	74	4,75	-	-	553,5	1,6	345,9
II	7,3 %	1,77	0,57	28	88	4,3	-	-	631,5	1,8	350
III	12,9 %	1,77	0,57	28	88	4,4	-	-	656,1	1,85	355
IV	18,1 %	1,77	0,57	28	88	4,5	-	-	682,3	1,9	359
V	8,1 %	1,67	0,54	30	92	5,5	-	-	642	1,8	357
VI	12,8 %	1,67	0,54	30	92	5,6	-	-	666,2	1,85	360
VII	18,9 %	1,67	0,54	30	92	5,7	-	-	692	1,9	364
VIII	-	1,32	0,91	38	55	6,3	-	7,1	536,8	1,7	315,8
IX	-	1,92	0,77	26	65	4,8	5,1	-	538,7	1,8	299,3
X	-	1,72	0,57	29	88	5,9	6,4	7,4	527	1,8	292,8
XI	17 %	1,6	0,83	32	60	5,1	6,1	-	540	1,85	291,9

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ikki qavatli trikotaj to‘qima variantlari asos to‘qimaga nisbatan solishtirilganda, variantlar ketma-ketligi bo‘yicha I-VII-variantlarda xomashyo sarfi oshib borgan. VIII-XI-variantlarda esa xomashyo sarfi kamayib borgan. Variantlarning barchasi paxta iplaridan to‘qilgan. 2+2 va 3+3 rapportli to‘qima variantlarining farqi arqoq iplarining miqdori o‘zgarishi bilan ifodalanadi. Arqoq ipi miqdori oshirilishi yuza zichligi, qalinligi, hajmiy zichliklarini asos to‘qimasiga nisbatan yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ldi. VIII-XI-variantda yuza va hajmiy zichliklari esa kamayib bordi. Eng yuqori yuza zichlikka ega bo‘lgan VII ga nisbatan X-variantda eng past yuza zichlikka ega bo‘ldi. Variantlar o‘rtasidagi nisbat asos to‘qimaga nisbatan 4,8 % ga kamayganligini ko‘rish mumkin. Qalinligi bo‘yicha esa VII-variantda eng yuqoriligi aniqlandi va asos to‘qimaga nisbatan 19 % ga oshgan. Trikotaj to‘qimalarining asosiy ko‘rsatkichlaridan yana biri bu uning hajmiy zichligidir. Hajmiy zichligi asos to‘qimaga nisbatan eng kam bo‘lgani bu XI-variantdir, u asos to‘qimaga nisbatan 15,6 % ga kamaygan.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida, yangi tarkibli va tuzilishga ega bo‘lgan kam cho‘ziluvchan ikki qavatli trikotaj to‘qimalar olindi. Mato tarkibiga arqoq ipining chiziqiy zichligini o‘zgartirish, qo‘shimcha halqa qatorlari ya’ni hosilali glad hamda press halqa qatorlarini kiritilishi natijasida, mato variantlarining texnologik

ko'rsatkichlari asos to'qimaga nisbatan ortdi. Natijada, ikki qavatli trikotaj to'qimalari kam cho'ziluvchanlikka ega bo'lganligi sababli ustki mahsulotlar uchun mo'ljallangan kiyimlar ishlab chiqarish mumkinligi aniqlandi (14-rasm).



14- rasm. Ikki qavatli trikotaj to'qimalarning hajm zichligi gistogrammasi

Ilmiy tadqiqotlar davomida ikki qavatli trikotaj to'qimalarining fizik-mexanik xususiyatlari ham aniqlangan (3-jadval).

Ikki qavatli trikotaj to'qimasi tarkibiga paxta ipidan arqoq sifatida kiritilganda, uning havo o'tkazuvchanligi kamayadi, trikotaj tarkibiga arqoq iplarining miqdori oshirilgan sayin havo o'tkazuvchanligi shunchalik kamayib boradi.

I-variantda havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $96 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$ ni tashkil qildi. II-variantda havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $53 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$ ni tashkil qildi. Asos to'qimaga nisbatan 45 % ga kamaydi. III-variantda havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $48 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$ ni tashkil qildi. Asos to'qimaga nisbatan 50 % ga kamaydi. IV-variantda havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $42 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$ ni tashkil qildi va asos to'qimaga nisbatan 56 % ga kamligi aniqlandi. V-variantda havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $57 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$ ni tashkil qildi. Asos to'qimaga nisbatan 41 % ga kam, VI-variantda havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $52 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$ ni tashkil qildi. Bu esa asos to'qimaga nisbatan 46 % ga kam. VII-variantda havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $49 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$ ni tashkil qilgan bo'lsa, asos to'qimaga nisbatan 49 % ga kamligi aniqlandi. Interlok asosida hosilali glad hamda interlok press trikotaj to'qimalarining yana 4 ta variantining havo o'tkazuvchanligi aniqlandi. VIII-variantda havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $87 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$ ni tashkil qilgan bo'lsa, asos to'qimaga nisbatan 10 % ga kamaygan. IX-variantda havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $84 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$ ni tashkil qilgan bo'lsa, asos to'qimaga nisbatan 12 % ga kam. X-variantda havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $77 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$ ni tashkil qilgan bo'lsa, asos to'qimaga nisbatan 10 % ga kam. XI-variantda havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi $65 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \cdot \text{sek}$ ni tashkil qilgan bo'lsa, asos to'qimaga nisbatan 32 % ga kamligi aniqlandi. Havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi pastligi, to'qima rapporti hamda arqoq ipining miqdori ortib borishi bilan izohlanadi (15-rasm).

Trikotaj matolardan foydalanish jarayonida mahsulotlarning atrof muhitdagi predmetlarga tegib ishqalanish natijasida, uning ayrim qismlari kiyishga yaroqsiz va


yemirilgan holatga kelib qoladi.

Trikotaj matolarining ishqalanishga chidamlilik ko'rsatkichining baholash me'zoni sifatida sinovdan o'tgan variant namunalari yemirilishigacha bo'lgan asbobning aylanishlar soni qabul qilingan.


3-jadval

Ikki qavatli trikotaj to'qimasining fizik-mexanik xususiyatlari


Ko'rsatkichlar va variatlar		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	Standart bo'yicha
To'qima turi		Interlok	Interlok 2+2	Interlok 2+2	Interlok 2+2	Interlok 3+3	Interlok 3+3	Interlok 3+3	Aralash interlok	Press interlok	Aralash press hosila	Interlok 3+3 press	
Xomashyo turi va chiziqiy zichligi, (teks)	Paxta	20 t x 3	20 t x 3	20 t x 3	20 t x 3	20 t x 3	20 t x 3	20 t x 3	20 t x 3	20 t x 3	20 t x 3	20 t x 3	
Xomashyo turi va miqdori, (%)	Paxta	100	92,7	87,1	81,9	91,9	97,2	81,1	100	100	100	83	
Arqoq ipining to'qima tarkibidagi miqdori (%)	Paxta	-	7,3 (20 t x 1)	12,9 (20 t x 2)	18,1 (20 t x 3)	8,1 (20 t x 1)	12,8 (20 t x 2)	18,9 (20 t x 3)	-	-	-	17 (20 t x 3)	
Havo o'tkazuvchanlik V, (sm ³ /sm ² ·sek)		96	53	48	42	57	52	49	87	84	77	65	GOST 1228-2014
Ishqalanishga chidamlilik I, (ming aylana)		30	30,5	31	32	31	32	33	31	30	31,5	32	GOST 16483-93
Uzilish kuchi R, (N)	Bo'yiga	510,3	515	528,1	533,03	433,1	460,3	461,3	657,7	365,4	348,1	528	GOST 28554-2022
	Eniga	869,2	912,2	959,9	1174,3	1094	1129,5	1139,5	498,6	555	718	1132	
Uzilishdagi cho'zilish L, (%)	Bo'yiga	184,8	179,3	173,4	167,3	148,7	131,3	121,5	92,4	88,3	84	81	
	Eniga	97,1	91,3	90,3	83,7	76,9	67	62,7	94	91	88	58	
Qaytar Deformatsiya ε _o , (%)	Bo'yiga	81	83	84	85	84	85	86	87	86	88	89	
	Eniga	88	96	97	98	96	97	98	85	84	86	98	
Qaytmas deformatsiya ε _n , (%)	Bo'yiga	19	17	16	15	16	15	14	13	14	12	11	GOST 28882-2022 15-20% ko'p emas
	Eniga	12	4	3	2	4	3	2	15	16	14	2	
